

MUSIQA TA'LIMINING ZAMONAVIY TALABLARI VA INTERFAOLLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI

*Namangan davlat pedagogika
instituti magistranti
Shukurova Nigora Azam qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa ta'limining zamonaviy rivojlanish bosqichlari, ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan yangi pedagogik talablar hamda interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, musiqa mashg'ulotlarida interfaol yondashuvlar orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, estetik didi va musiqiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *musiqa ta'limi, zamonaviy talablar, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, ijodiy faoliyat, pedagogik texnologiyalar.*

СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И РОЛЬ И ВАЖНОСТЬ ИНТЕРАКТИВНОСТИ

*Наманганский государственный педагогический
институт, магистрантка
Шукурова Нигора Азам қизи*

Аннотация: В статье рассматриваются современные этапы развития музыкального образования, новые педагогические требования к образовательному процессу, а также роль и важность интерактивных методов. Также анализируются вопросы формирования творческого мышления, эстетического вкуса и музыкальных компетенций учащихся посредством интерактивных подходов на уроках музыки.

Ключевые слова: *музыкальное образование, современные требования, интерактивные методы, компетентностный подход, творческая деятельность, педагогические технологии.*

MODERN REQUIREMENTS OF MUSIC EDUCATION AND THE ROLE AND IMPORTANCE OF INTERACTIVITY

*Namangan State Pedagogical Institute,
Master's student
Shukurova Nigora Azam qizi*

Annotation: This article covers the modern stages of development of music education, new pedagogical requirements for the educational process, and the role and importance of interactive methods. Also, the issues of forming students' creative thinking, aesthetic taste, and musical competencies through interactive approaches in music lessons are analyzed.

Keywords: *music education, modern requirements, interactive methods, competency-based approach, creative activity, pedagogical technologies.*

Kirish: Bugungi kunda musiqa ta'limi tizimi global axborotlashuv jarayonlari, innovatsion pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'sirida sezilarli darajada yangilanmoqda. Zamonaviy talablar musiqiy bilimlarni shunchaki nazariy o'rgatishni emas, balki o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiradigan, musiqiy kompetensiyalarni amaliy faoliyat orqali shakllantiradigan metodlarni qo'llashni talab qiladi. Shuning uchun ham musiqa darslarida o'quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, emotsional-estetik idroki va madaniy saviyasini oshirishga yo'naltirilgan interfaol metodlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Interfaollikning asosiy mazmuni — o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida faol muloqot, hamkorlik, musiqiy jarayonda barchaning ishtirok etishi va o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llashga undashdir. “Aqliy hujum”, “Besh daqiqalik improvizasiya”, “Sinkveyn”, “Aqliy xarita”, “Juftlikda ishlash”, “Jamoaviy ansambl ijrosi”, “Audio-analiz”, “Videodars” kabi metodlar o'quvchilarda musiqani idrok qilish, analiz qilish va ijro etish malakalarini yanada mustahkamlaydi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli platformalar (virtual cholg'ular, musiqiy dasturlar, interaktiv slaydlar, mobil ilovalar) musiqiy jarayonni qiziqarli, dinamik va samarali qiladi¹.

Shuningdek, interfaollik o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini ochish, sahna madaniyati, ansambl madaniyati, ritm, intonasiya, tonal eshituv kabi ko'nikmalarni tezroq shakllantirishga yordam beradi. Bunday yondashuv musiqa ta'limini biryoqlama emas, balki ko'p qirrali tarzda olib borishga, o'quvchini passiv tinglovchidan faol ijodkor darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi. Zamonaviy yondashuvlarda o'quvchi darsning passiv ishtirokchisi emas, balki asosiy subyekti hisoblanadi, o'qituvchi esa yo'naltiruvchi, motivator va ijodiy muhit yaratuvchi sifatida faoliyat yuritadi².

Umuman olganda, musiqani interfaol usullarda o'qitish darslarning samaradorligini oshiradi, o'quvchilar o'rtasida ijodkorlikni rag'batlantiradi, milliy va jahon musiqiy merosini chuqurroq anglashga imkon yaratadi. Shu bois zamonaviy musiqa ta'limida interfaollik asosiy talab va muhim pedagogik shart sifatida qaraladi³.

¹ Jo'rayev, A. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

² Abdullaeva, G. Musiqa ta'limining nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

³ Коган, Г. Методика музыкального воспитания. – Москва: Академия, 2018.

Bugungi Yangi O'zbekistonda Zamonaviy musiqa ta'limining asosiy prinsiplarini quyidagicha ko'rish mumkin.

Mashg'ulotlarga kompetensiyaviy yondashuv: Bu yondashuv davomida o'quvchi bilim olish jarayonida amaliy ko'nikma va ijodiy faoliyatni egallaydi. Darslarni yangi texnologiyalar bilan bir qatorda nazariya + amaliyot uyg'unligi muhimligini mashg'ulotlar davomida inobatga olish.

Musiqa ta'limida darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim prinsplariga amal qilish: Har bir o'quvchining qiziqishi, eshitish qobiliyati, ritm sezgirligi inobatga olib vazifalar taqsimlanadi bunda ularning ijodkorlik ko'nikmalari yaxshi rivojlanishiga sabab bo'ladi. Mashg'ulotlar davomida dars samaradorligini oshirish maqsadida differensial topshiriqlar qo'llaniladi⁴.

Musiqa ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Muammoli ta'lim texnologiyasi - o'quvchilar oldiga muammoli vaziyatlarni qo'yish orqali ularning mustaqil fikrlash va ijodiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish.

2. Loyiha texnologiyasi - o'quvchilar tomonidan musiqiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

3. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi - guruh bo'lib ishlash, musiqiy ansambllar tuzish va birgalikda ijod qilish orqali kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - zamonaviy raqamli vositalar, multimediya resurslar va internet platformalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish.

Interfaol metodlarning musiqa darslaridagi afzalliklari quydagilarni o'zida aks ettiradi.

Mashg'ulotlarda o'quvchini faollashtiradi — dars dinamikasi ko'tariladi.

Eshituv va ritm sezgirligini kuchaytiradi — amaliy mashg'ulotlar ko'p bo'ladi.

Jamoaviy ijro ko'nikmasi rivojlanadi — ansambl, xor, duet ishlari.

Tanqidiy va ijodiy fikrlash shakllanadi — musiqiy tahlil, improvizatsiya.

Motivatsiyasi oshadi — o'quvchi musiqa jarayonidan zavqlanadi⁵.

Zamonaviy musiqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bular jumlasiga musiqiy o'yinlar, rolli o'yinlar, musiqiy viktorinalar, ijodiy mashqlar, improvizatsiya mashg'ulotlari kiradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'quv jarayonini qiziqarli hamda samarali qiladi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi musiqa ta'limida ham yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Turli musiqiy dasturlar, elektron darsliklar, musiqiy notalar redaktorlari, audio va video materiallar,

⁴ Xudoyberdiyev, S. Musiqa ta'limida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Universitet, 2021.

⁵ Karimova, N. Interfaol metodlar amaliyoti. – Toshkent: Istiqloq nashriyoti, 2022.

virtual musiqa asboblari musiqa ta'limini yanada samarali va zamonaviy qilmoqda. Masalan, musiqiy kompozitsiya yaratish dasturlari o'quvchilarga o'z ijodlarini yaratish va qayd etish imkonini bersa, musiqiy notalar redaktorlari nota yozuvini o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Masofaviy ta'lim texnologiyalari ham musiqa ta'limida muhim o'rin tutmoqda. Onlayn masterklasslar, video darslar, vebinarlar va musiqiy forumlar orqali o'quvchilar masofadan turib bilim olish va malakalarini oshirish imkoniga ega bo'lmoqdalar. Bu esa geografik cheklolarni bartaraf etib, ta'limni yanada qulayroq va ommabop qilmoqda⁶.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda musiqa ta'limi samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ayniqsa, interfaol metodlarning o'zni beqiyosdir. Interfaollik o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, musiqani idrok etish, eshituv xotirasi, ritm sezgirligi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bunday yondashuv musiqa darslarini jonlantiradi, o'quvchilarni amaliy ijroga keng jalb qiladi hamda ularning emotsional-estetik dunyosini boyitadi. Zamonaviy musiqa ta'limi kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan bo'lishi lozim. Bu esa o'quvchilarda mustaqil ijodkorlikni, ansambl ko'nikmalarini, sahna madaniyatini va milliy musiqa merosiga hurmatni shakllantiradi. Shu bois interfaol metodlar musiqa ta'limining strategik talabi sifatida qaralib, uning mazmuni va sifatini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abdullaeva, G. Musiqa ta'limining nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Jo'rayev, A. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Xudoyberdiyev, S. Musiqa ta'limida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Universitet, 2021.
4. Sodiqova, M. Musiqa o'qitish metodikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018.
5. Karimova, N. Interfaol metodlar amaliyoti. – Toshkent: Istiqol nashriyoti, 2022.
6. Коган, Г. Методика музыкального воспитания. – Москва: Академия, 2018.

Axborot manbaalari

1. <http://www.goole.com>
2. <http://www.ZIYO.net>.

⁶ Sodiqova, M. Musiqa o'qitish metodikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018.